

NAZAR ESHONQULNING “GIRYON” ROMANIDA YETIM QIZ RUHIY MUAMMOSI

Norbaboyeva Matluba Toxirovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston
E-mail: mnorbaboyeva@gmail.com ORCID: 0009-0004-8260-7240

Tel: 91-951-30-87

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20048293>

Yozuvchi N.Eshonqulning aksar asarlarida go'yo umumiy bir obraz bor. Bu obraz nazarimda muallifning o'zi. Yaqinda muallifning “Yangi asr avlodi” nashriyotida “Giryon” (2025) romani chop etildi. Asar haqida muqova ichida veb-roman atamasi qo'llangan. Zamonaviy roman shaklida yozilgan. Roman strukturasi: – roviyning izohlari; – ong oqimi; – ijtimoiy tarmoq bahslari; – Tarsoning dil izhorlaridan iborat. Yozuvchining e'tibori to'rt strukturadan otasiz ulg'aygan yetim qiz Tarsoning dil izhorlariga qaratilgan bo'lib, muallif kitobxonning e'tiborini ham shu masalaga qaratadi. Muallif nega Tarso ismini tanlagan, Hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi eng katta hikoyat Shayx San'on hikoyatidir. Yozuvchi falsafiy-tasavvufiy talqinga murojaat qilgan. Bu romanda ham ishq va hayot kurashi kurashi tasvirlanadi. Roman keng qamrovga ega. U faqat tasavvufiy mazmun kasb etib qolmay, falsafiy psixologik, hayotiy masalalarni ham ko'ndalang qo'yadiki, Nitshe kabi faylasuflarning ham ta'siri borligi sezilib turadi. Roman bosh qahramoni muallifning o'z tilidan hikoya qilinadiki, Tarsoning hikoyatida ham “men” tilidan hikoya qilinadi, romanni muallifning “Qora kitob” qissasining davomi deb o'yladim. Keyinroq, mutolaa davomida bu fikrdan cheklandim, “Qora kitob” qissasida ham Iblis va Inson kurashi, ichki men va tashqi men kurashi bor. Mana shu jihatlari bilan qiyoslash mumkin. Roman strukturasi hikoya ichida hikoya tarzida qo'llanilishi ham tasavvuf adabiyotida ham, chet el adabiyotiga munosabat ularning o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi. Romanda zamonaviy yozuvchining qiyofasi; ijtimoiy tarmoqlarni muntazam kuzatishi, ularning kuzatuvchilarining yozishmalaridan odamlarning qiyofasi va hayotdagi odamlarning qiyofasini solishtirish imkonini beradi. Hayotda gaplashgan inson ichki menini ro'y-rost ko'rsatishi mushkul ekani, ijtimoiy tarmoqlarda esa ochiqchasiga yozish imkoniyati borligi ko'rinadi. Romanda inson ruhiyati tahlili chuqur o'rin olgan. Jumladan, Nitshe, Freyd, Shopengauer, Yung kabi mutafakkirlarning falsafasiga bot-bot murojaat qiladi. (Tarso ruhiyatini tushunish, his qilish uchun)

Freyd nazariyasiga Tarso va San'on qiyofasini ochishda murojaat qilgani zamonaviy inson qiyofasi, ruhiyatini tasavvuf falsafasiga monand tahlil qilishga undaydi. Tarso ruhiyati murakkab. Dastlab, shizofreniya kasali bor deb o'ylab qolish mumkin, biroq tush va reallik o'rtasidagi mutanosiblik borligi oydinlashadi.

Tarso – otasiz yetim qiz. Muallif uning ruhiyatini tahlil qilarkan, unda Yaratganga isyonni ko'radi. Tarsoning faqat bu dunyoni tark etishga intilishi, Iblis bo'lishni istashi, bu dunyo insonlariga biror narsani izohlashga majbur emasligi uning ruhiyatidagi tartibsizlikni ko'rsatadi. Inson ruhiyati ma'lum bir tizimga bo'ysunmasligi, tinimsiz o'zgarib turishi ko'rinadi. Endi unda yaratganga isyonning o'zgacha ko'rinishi sodir bo'ladi. “Bo'ldi, ukamni sog'aytir, meni telba qil!” deya yalinaman. Ukamning yoshi ulg'ayib, uning azoblarini ko'rganim sayin bu isyon menda kuchayib bordi”¹. Qahramon ukasining telbaligiga ba'zan havasi keladi. Uni Xudoni

¹ Eshonqul N. Giryon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025. – B.136.

ko'rgan deb hisoblaydi. "Men ham telba bo'lgim, ukam talpinayotgan o'sha xilqatni ko'rgim, uning xayollari uchib yurgan manzillarga borgim, uning jamoli bilan o'zimga, xayollarimga, og'riqlarimga shifo bag'ishlagim keladi"². Ba'zan qahramon ruhiyatida xudoni sog'inish, ba'zan esa unga qarshi isyon kuzatiladi. Bu Tarso ruhiyatidagi paradoksal holat. Umuman, inson ruhiyatida juda ko'p holatlarda shunday ziddiyatlar bot-bot namoyon bo'ladi. Tarso ruhiyatida buzilishlar qayta-qayta ko'zga tashlanadi. Bir o'rinda qahramon ukasini o'ldirishga qaror qiladi, sabab sifatida butun dunyo uning ukasi nogironligi uchun tahqirlayotgandek tuyuladi. Va bu qaror uning uchun eng yaxshi yechim bo'lib ko'rinadi. N.Eshonqulning "Qora kitob" qissasida ham qahramon qizini o'ldirib qo'yishi tasvirlari kuzatiladi. Yana shunday fikrlaydiki, "Do'zax bizning o'zimiz", degan to'xtamga keladi. Har ikkala asar qahramoni ruhiyatida ham "yashashdan mazmun yo'q" degan xulosa yetakchilik qiladi. Yana bir o'rinda esa "o'lim javob emas", degan xulosaga keladi.

Romanda "Odamboy" haqidagi hikoyatda mavjudlik va mavhumlik o'rtasidagi farq sezilmaydi. Muallifning bolalik xotiralari bilan bog'liq hikoyatga o'quvchi nihoyatda ishonib qoladi. Biroq muallif bir necha yillardan so'ng qishloqqa qaytgach, hech kim uning so'zlariga ishonmaydi, Odamboyning borligini hamma rad etishi kabi ziddiyatli tasvirlardan inson ruhiyatining tubsizligi, cheksizligi kuzatiladi. Bundan tashqari tush epizodi asarda alohida badiiy funksiyani bajaradi. Bunda muallif tushi va qahramon tushi epizodlari mavjud.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Eshonqul N. Giryon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025. – B.320.
2. Toxirovna, Norbaboyeva Matluba. "Interpretation of Orphanhood in Modern Uzbek Stories." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 7.1 (2026): 118-122.
3. Toxirovna, Norbaboyeva Matluba. "FOLKLORDA YETIMLIK MOTIVI." *Science and innovation* 2.Special Issue 7 (2023): 311-312.
4. Tohirovna, Norbaboyeva Matluba. "BADIY ADABIYOTDA OBRAZLAR TIZIMI VA "YETIM BOLA" OBRAZI." *OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI* (2022): 393.

² O'sha kitob, 137-bet.